Ключевые слова: оздоровительный туризм, туристско-рекреационные услуги, бальнеология, лечебный туризм, бальнеологические ресурсы.

KIRISH

Surxondaryo viloyati respublikamizning eng janubida, eng tog'li, eng issiq hududida joylashgan bo'lib, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Hisor tog'ining janubiy etaklarida joylashgan. Ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyati 14 ta qishloq tumani¹, 8 ta shahar va 112 ta shaharchalardan iborat. Surxondaryo hududining taxminan 70 foiz maydoni tog'liklardan iborat bo'lib, tabiiy geografik jihatdan uning faqat janub tomoni ochiq va qolgan uch tomondan tog'lar bilan o'ralgan. Bunday yer ustining tuzilishi, orografik holat mintaq iqlimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqlimi quruq, issiq, yog'in-sochin miqdori o'rtacha 130-180 mm, tog' yon bag'irlarida 600 mm gacha yetadi. Harorat respublika bo'yicha eng yuqori, vegetatsiya davri uzoq. Agroiqlimiy sharoitlar sug'orma dehqonchilikni taqozo etadi. Bu yerda, mamlakatimizni boshqa hududlaridan farq qilib, subtropik xo'jalik yaxshi rivojlangan. Asosiy daryolari hisoblangan Surxon va Sherobod daryolari viloyat xo'jaligida muhim omil sifatida xizmat qiladi va ular asosida barpo etilgan qator kanal va suv omborlaridan (Uchqizil, Qumqo'rg'on, Janubiy Surxon suv omborlari, Katta Hisor, Amu - Zang, Hazorbog' va boshqa kanallar) sug'orma dehqonchilikda foydalaniladi. Tog' yonbag'irlari lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik uchun sharoit qulay. Umuman olganda, Surxondaryo respublikamizda nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan viloyat hisoblanadi.

¹ Viloyatning dastlab tashkil etilgan (1926-yil) qishloq tumanlari Denov, Sariosiyo, Termiz va Sherobod, eng so'nggisi esa 1992-yilda tarkib topgan Bandixon tumani sanaladi. Maydoni bo'yicha eng kattalari Sariosiyo va Boysun, eng kichigi Angor (atigi 0,39 ming kv. km). Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Qumqo'rg'on tumanlari birgalikda 12,6 ming kv.km yoki viloyat maydonining 62,6 foizini egallaydi.



Shuningdek, viloyat farmatsevtika resurslariga boy bo'lib, bu yerda respublika dorivor o'simliklarining 35-40 foizi joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida [1] bunday o'simliklar turlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda rekreatsiya va turizmni rivojlantirish muammolari, shuningdek davolash-sog'lomlashtirish turizmi bilan bog'liq borasida Z.I. Usmanova [7], A.T. Mirzayev [6], Abdulkakimov Z.T. [2] singari respublikamiz olimlari tadqiqotlar olib borishgan. Ular rekreatsiya va turizmni tashkil etish va rivojlantirish, hududlarning sayyohlik imkoniyatlari, rekreatsion resurs salohiyati, rayonlashtirish masalalariga asosiy e'tibor qaratgan. Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonda rekreatsiya va turizm sohasi bilan bog'liq tadqiqotlar, shuningdek davolash-sog'lomlashtirish turizmiga oid izlanishlarni nafaqat iqtisodchi olimlar, qolaversa geografiya sohasidagi mutaxassslarning ham o'rni katta. O'zbekistonda rekreatsiya resurslarini o'rganishda qator olimlar samarali tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, A.Z. Zokirov respublikaning rekreatsion resurslarini o'rganish bilan shug'ullangan. Olim [3] tomonidan tomonidan O'zbekiston respublikasi rekreatsion jihatdan rayonlashtirilgan. Z. Maxamatillayev [5] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mamlakatimizda kurort va iqlimshunoslik yo'nalishlarida amalga oshirilgan muhim ilmiy tadqiqotlardan biridir. A.X. Yusupov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar "O'zbekistonning janubiy hududlari iqlim sharoitini dam olish va davolash uchun baholash" bilan bog'liq [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini rekreatsiya va sog'lomlashtirish turizmi, sohasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan olimlarning qarashlari, fikr va mulohazalari tashkil etadi. Mavzuni yoritishda tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining rekreatsiya va turistik salohiyati juda yuqori (Omonxona, Uchqizil, Xo'jaikon, Vaxshimor va b.). Mintaqada joylashgan shifobaxsh buloqlar (yodobromli, seravodorodli, oltingugurtli) va boshqa balneologik resurslar, karst g'orlari, o'ziga xos tabiiy landshaftlar, subtropik mevazor va bog'lar, arxeologik topilmalari, qadamjo va ziyoratgohlar davolash-sog'lomlashtirish turizm, shuningdek, tarixiy, diniy, ekoturizm va agroturizmning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Surxondaryo viloyati mamlakatimizning turistik-rekreatsion imkoniyatlari nihoyatda katta bo'lgan hududlaridan biri sifatida quyidagi rekreatsiya yo'nalishlari bo'yicha alohida ajralib turadi:

- davolash-sog'lomlashtirish (sanatoriya va kurortlar, pansionatlar va boshqa sog'lomlashtirish maskanlari);
- gastronomik (turli milliy taomlar, ichimliklar, oziq-ovqat maxsulotlar);
- tarixiy- (xarobalar, arxeologik yodgorliklar,);
- milliy etnografik (milliy liboslar, urf-odatlar, to'ylar,)
- madaniy (teatr, kinoteatr, ko'ngilochar festivallar);
- ekoturistik (tabiiy manzaralar, tabiiy obyektlar);
- sport (chang'i, suv sporti, ot sporti, milliy kurash, milliy sport o'yinlar) va h.k.

Viloyatda davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori. Omonxona, Xo'jaikon, Uchqizil, Jayronxona va boshqa sihatgohlari bilan respublikamizda ko'pchilikka ma'lum. Jumladan, Omonxona bulog'i Boysun tog'lari bag'rida joylashgan va qora qarag'aylar bilan qoplangan hududdir. Ushbu joyning geografik muhiti, go'zal manzaralari va bahavoligi inson ruhiyatiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Boysun tog'lari etaklarida joylashgan Omonxona bulog'ining suvi tarkibida kremniy, temir, alyuminiy, hamda boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Mutaxassslarning fikriga ko'ra, vitamin va minerallarga boy bu buloq suvi inson tanasini, ayniqsa, jigar va o't pufagi yo'llarini davolashda foydalidir. Suvning shifobaxsh xususiyatlari surunkali gepatit (sariq kasalligi), surunkali xolitsistit (o't pufagi va yo'llarining yallig'lanishi), oshqozon-ichak kasalliklari (gastrit, duodent, kolitlar), qandli diabet va oshqozon osti bezining yallig'lanishi (pankreatit) kabi kasalliklar bilan kurashishda muhim ahamiyatga ega. Omonxona" dam olish maskani va shifoxonasi ikkita yirik daryo - Palangxona va Omonxona qo'shilish joyida joylashgan. Bu daryolar tog' tizmalari bilan o'ralgan daralardan boshlanadi va cheksiz tog' qarag'aylari bilan qoplangan. Archa o'rmonlari insoniyat uchun zarur bo'lgan kislorodni ishlab chiqaradi va tog' buloqlari uchun asosiy suv manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, dam olish maskani va shifoxonasi bemorlarning ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Omonxona suvi va atrof-muhitining sog'lomlashtiruvchi xususiyatlari ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.



G'orimbuloq bulog'i Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan. Bulog suvi ichki a'zolar, jumladan, oshqozon-ichak trakti, jigar, o't pufagi va buyrak kasalliklarini davolashi haqida ma'lumotlar mavjud. Viloyatning eng diqqatga sazovor rekreatsiya obyektlaridan biri Sangardak sharsharasi bo'lib, u Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida joylashgan. U Markaziy Osiyoda o'zining ulug'vor tabiiy go'zalligi bilan ajralib turadi. Sangardak sharsharasining noyob xususiyati uning uzluksiz suvi va ko'zni qamashtiradigan manzarasidir. Ushbu tabiiy mo'jiza yil davomida doimiy ravishda suv oqimi bilan ajralib turadi, bu esa uni yil davomida turistlar uchun jozibador joyga aylantiradi.

Jayronxona tibbiy reabilitatsiya va fizioterapiya muassasasi Surxondaryo daryosi bo'yida, Termiz shahridan 22 km shimoli-sharqda, dengiz sathidan 420 m balandlikda joylashgan [53; 126-bet.]. Bu maskanning davolash omili yer osti mineral suvi hisoblanadi. Suvning harorati 33-40°C, tarkibi xlorid-kalsiy-natriyli, yuqori minerallashtirilgan (30-35 g/l), vodorod sulfid miqdori 70-600 mg/l gacha boradi. Bu suv shifoxonada vanna muolajasi usulida qo'llaniladi (bu yerga Uchqizildan quvurlar orqali keltiriladi). Shuningdek vodorod sulfidli suv bilan tayanch-harakat a'zolari, yurak-tomir va asab sistemasi, ayollar kasalliklari va teri kasalliklari davolanadi.

Xondjiza oromgohi Sariosiyo tuman markazidan 80 km g'arbiy uzoqlikda joylashgan dam olish maskani. Dengiz sathidan 1200-1800 m balandlikda Hisor tizmasining janubiy yonbag'ridagi Xondjiza daryo vodiysidagi go'zal tabiat manzarasi, toza va salqin havosi, tiniq suvli tog' daryosi, iqlimi bilan davolash xususiyatiga ega bo'lgan joy. Bu yerda 150 o'rinli oromgoh va dam olish uyi faoliyat ko'rsatmoqda. Dam oluvchilar tomonidan turli ekskursiyalar, turistik yurishlar uyishtiriladi.

Termiz Marvaridi sanatoriyasi Termiz tumani Uchqizil suv ombori hududida joylashgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin Uchqizildagi mineral suv topidi va o'rganildi, hozirda 160 o'ringa mo'ljallangan sanatoriya faoliyat yuritmoqda. Sanatoriyaning ikki qudug'idan ikki xil mineral suv manbalari olinadi: 234 m chuqurlikdan oltingugurt rudasi bo'lgan mineral suv va 432 m chuqurlikdan olinuvchi yod-bromga boy bo'lgan suv. Mazkur mineral suvlardan turli vannalar va dushlar qabul qilish orqali foydalaniladi. Shuningdek, mamlakatimizdagi qum bilan davolashga ixtisoslashgan yagona sanatoriya hisoblanadi. Mineral suv bilan bo'g'im kasalliklari, teri kasalliklari vanna muolajasi orqali davolanadi.

Bobotog' milliy tabiat bog'i Uzun tumani hududida joylashgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-martdagi 93-sonli qarori bilan tashkil qilindi. Mazkur hudud o'ziga xos iqlimga ega bo'lganligi uchun tog'ning yuqori qismidagi archazorlarni asrash, hududdagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish maqsad qilingan. Hududda mineral suvli bulog (Oqsuv), xandon pista daraxtlari, shifobaxsh kovrak o'simligi, shamol va suvning ishi natijasida vujudga kelgan tabiiy manzaralar bu yerga tashrif buyurgan har qanday insonni qiziqtiradi va o'ziga maftun etadi.

Vaxshivor darasi Oltinsoy tumani hududida joylashgan o'ziga xos tabiatga ega bo'lgan maskan. Daraning yuqori qismi qalin archa o'rmonlari bilan qoplangan, suv resurslariga boy. Daraga kirish qismida "Katta Vaxshivor", "Mirob" oromgohlari, Qo'tirbulog, Qilichbulog kabi buloqlari, karst g'ori, uzoq yillik chinor daraxtlari hamda "So'fi Olloyor" ziyoratgohi joylashgan.

To'polang suv ombori Sariosiyo tumani hududida To'polon daryosining yuqori oqimida joylashgan. Daryoning suvi ko'p va tez oqganligi uchun mazkur nom bilan ataladi. Suv ombor 500 mln m³ hajmga ega. Suv ombor atrofi xushmanzara bo'lishi bilan birga toza ob-havoga ega. Yoz faslida suv ombor hududiga mahalliy turistlar tashrif buyurishadi. Suv omborda qayiqlar orqali sayr qilishadi, baliq ovlashadi. Suv omborning pastki qismida viloyatdagi yagona GES joylashgan.

Omonxona sanatoriyasi 1991-yilda balneologik va iqlimiy kurort maskan sifatida 200 o'ringa mo'ljallab tashkil etilgan. Sanatoriya hududida 1600 metr chuqurlikdan chiqadigan 15-16°C haroratli mineral terapevtik suv mavjud. Mineral suv sulfat, magniy, kalsiy, xlorid ishqorlariga boy. Ovqat hazm qilish tizimi, surunkali gepatit, o't pufagining yallig'lanishi, oshqozonning surunkali yallig'lanishi (gastrit), oshqozon osti bezining surunkali yallig'lanishi (pankreatit), yo'g'on ichakning yallig'lanishi (surunkali kolit, ich qotishi), surunkali osteoxondroz, I-II darajali qon bosimi, qandli diabet, jigar sirrozining dastlabki bosqichi (astsitsiz shakl) da qo'llaniladi.

Ma'lumki, davolash-sog'lomlashtirish turizmi uchta shifobaxsh tabiiy va rekreatsion resurslarga - iqlim, mineral suvlar va shifobaxsh balchiqqa asoslangan. Davolash-sog'lomlashtirish turizmi asosan kurort va sanatoriylarda amalga oshiriladi. Misol uchun Isroildagi O'lik dengiz hududi tibbiy-davolash turizm uchun ajoyib joy hisoblanadi. Uning mashhurligi tabiiy shifobaxsh omillar - termal mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar, dengiz tuzlari va iqlimiga bog'liq. O'lik dengiz atrofida yuqori darajadagi qulaylik va xizmat ko'rsatadigan ko'plab dam olish maskanlari mavjud va Isroilda diniy turizm bilan bir qatorda davolash-sog'lomlashtirish turizmi ham yetakchi yo'nalishga aylangan. O'lik dengiz sohilda bir nechta mashhur kurortlar mavjud, bular Eyn Bukek, Eyn-Bokek, Nev-Zoxar, Eyn-Gedi, ular psoriasis, ekzema, poliartrit, osteoxondroz va boshqa kasalliklarni muvaffaqiyatli davolashadi. Huddi mana shunga o'xshash joy Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida joylashgan Xo'jaipok bulog'ida ham o'chraydi.

Xo'jaipok bulog'i ohaktosh qatlamlari orasidan oqadigan, harorati 21 daraja bo'lgan mineral suv. Xo'jaipok bulog'i dengiz sathidan 902 m balandlikda joylashgan. G'or ichida sekundiga 20 litr suv chiqadigan katta bulog



bor. G'or Surxondaryoning o'ng irmog'i Xo'jaipok daryosi vodiysida joylashgan. G'or devorlarini qoplagan ohaktosh yoriqlarida toshga o'xshash uglevodorodlar qoldiqlari, ulkan oltingugurt kristallari va shaffof gips topilgan. Mineral suv minerallarga boy bo'lib oshqozon hamda ichak kasalliklarini davolaydi. "Xo'jaipok" oltingugurtli buloq suvi dengiz sathidan 1000 m balandlikda joylashgan bo'lib, 45 metr chuqurlikdan chiqadi. G'orning 1 litr suvi tarkibida 10-11 milligram oltingugurt mavjud bo'lib, suvning qayerdan chiqayotganligi hanuzgacha noma'lum. Suvu tiniq, oq-ko'kish rangli, ta'mi esa biroz tuzli. Buloqqa yaqinlashgan sari vodorod sulfid hidi anqiydi. Tarkibi kuchsiz vodorod sulfidli (H_2S -24 mg/l), kuchsiz minerallashtirilgan (2 g/l), kuchsiz ishqorli (pH -8,2), xlorid sulfat-natriy kalsiyli. Sovuqligi - 18°C. 1995-yilda g'or atrofiga "Xo'jaipok ota" oromgohi tashkil etilgan. Bu erda odamlarning sog'lig'ini tiklashi, maroqli hordiq chiqarishi uchun barcha shart-sharoit muhayyo qilingan, g'or ichida tabiiy vannalar ham mavjud. Xo'jaipok shifobaxsh suvidan foydalanish uchun maxsus vannalardan foydalaniladi. Vannalar Xo'jaipok shifobaxsh suvi yordamida massaj qilish yo'li bilan dam oluvchilarni davolaydi. Bemorlarni kunlik ya'ni ambulator va statsionar davolash imkoniyatlari mavjud. Asosan kardiologik, ginekologik, teri, tayanch-harakat tizimi va asab tizimini kasalliklar davolanadi.

G'orimbuloq bulog'i Sherobod tumanining eng chekka qismida joylashgan. Buloq suvi ichki a'zolar xastalıkları, jumladan oshqozon-ichak, jigar o't toshi, buyrak toshi kasalliklariga davo ekanligi isbotlangan. G'orimbuloq bulog'idan uzoq bo'lmagan joyda oshqozon kasalliklari uchun, ko'z kasalliklari uchun, teri kasalliklari uchun hamda shifobaxsh balchiq suvlari bor.

Xo'jamayxona bulog'i Boysun tumanida joylashgan. Havosi toza, xushmanzara, doimiy rekreatlar tashrif buyuruvchi maskan. Buloq tabiiy mineralga boy bo'lib, yurak qon-tomir, jigar (sariq kasallik), buyrak va o't qopi toshlari, oshqozon yaralari, kasalliklarida ayniqsa foydali.

Sayrob chinori uzoq yillik tarixga ega tabiat yodgorligi. Ulkan chinor daraxti taxminan 950 yoshda. Darxtning balandligi 26 m, diametri 21 m, kovagining balandligi 7 m. Daraxtning kovagida 1917-yilga qadar eski maktab joylashgan. 1920 yilda qishloq kengashi idorasi sifatida faoliyat yuritgan. 1932-1934-yillarda 1-otliq askarlar polkining lager kutubxonasi joylashgan. 1936-yilda qishloq savdo do'koni sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek ulkan chinor yonida shifobaxsh suvli buloq mavjud. Buloq suvi tarkibida sulfat, gidrokarbonatli tuzlar va kalsiy moddalari bor. Harorati 9°C. Mahalliy aholi undan ichimlik suvi sifatida foydalanadi. Suv yuzasi dumaloq shaklda bo'lib, diametri 3-5 metrni tashkil etadi. Buloqning chiqish joyida baliqlar yashaydi.

Xo'jaikon tuz g'ori shifoxonasi Sherobot tumani Oqtosh qishlog'ida dengiz sathidan 1200 m balandlikda joylashgan. Mazkur hudud Turkmaniston Respublikasi bilan chegaraga to'g'ri keladi. U 1989-yilda ochilgan bo'lib, tashqi tomondan katta tuz monolitini eslatadi. Uning ichi bir biridan harorat, namlik, bosim va mikroiklim bo'yicha farq qiluvchi beshta davolash xona-kameralari mavjud. G'or devorlari 1 sm dan 3 sm gacha bo'lgan tuz qatlami bilan qoplangan. G'or yonida tuz eritmali shifobaxsh bulog'i mavjud. Yil davomida havo harorati 7°C dan 27°C gacha bo'ladi, nisbiy namlik 50-70% ni tashkil etadi. Atmosfera bosimi 700 mm simob ustuni atrofiga bo'ladi. Havoda magniy, kaliy, temir gidroksidi kabi elementlar va boshqa mikroelementlar uchraydi. Tuz g'orida bemorlar nafas a'zolari kasalliklari, uzoq davom etadigan o'tkir va surunkali bronxit, zotiljam, teri kasalliklari, astma kasalligi va tayanch-harakat tizimi kasalliklarida tuz g'orida yotib davolanish muolajasi orqali davolanadi.

Xo'jaikon tuz g'ori Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori bilan moddiy va madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. 1995-yilda AQSH dan keltirilgan jihozlar yordamida mazkur hududda tuz qazib olish va ishlab chiqarish liniyasi ishga tushirilgan. Xo'jaikon tuz koni 150-300 m qalinlikdagi qum, gil, qumtosh, ohaktosh kabi bo'r davriga mansub yotqiziqlar bilan qoplangan. Tuz g'orning kengligi 150 m, uzunligi 300 m ni tashkil etadi. Hududning arxeologik topilmalari, at-Termiziy vatanining tarixiy yodgorliklari, ilk shaharlar qoldiqlari, karst g'orlari, ma'danli buloqlari, o'ziga xos tabiiy landshaftlari, qadamo va ziyoratgohlari ekskursion, agroturizm, diniy va ekoturizmning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Surxondaryo nafaqat tarixiy, balki o'ziga xos tabiiy rekreatsiya resurslariga ham boy. Bu yerdagi qadimiy milliy an'analar, o'yinlar, folklor qo'shiqchiligi va sport turlarining saqlanib qolishi sayyohlarni o'ziga jalb eta oladi. Dalvarzintepa majmuasida qadimiy budda ibodatxonalarining topilishi esa butun dunyoda ushbu dinga e'tiqod qiluvchilarni mazkur hududga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. Bundan tashqari, Ko'hna Termiz harobalari, Teshiktosh g'ori, Zarautsoy qoya su'ratlari, islom olamining yirik namoyondalari hisoblanmish Termiziyalar maqbaralari bilan bir qatorda go'zal tabiat manzaralari, shifobaxsh buloqlar viloyatdagi asosiy turistik obyektlarga aylanish imkoniyatiga ega.

Mintaqaning rekreatsiya va turizm salohiyati yuqori. Bugungi kunda mazkur hududlar turizm sohasi mutaxassislari tomonidan an'anaviy tarzda boy rekreatsion salohiyatga ega hudud sifatida e'tirof etilgan. Hudud o'zining tabiiy salohiyati, avvalo, relyefning xilma-xilligi, gidrologik tarmoqlari, karst hodisalari, iqlim xususiyatlari, o'simlik qoplamining xilma-xilligi, betakror etno va gastroturistik jihatlari bilan ajralib turadi. Mintaqada mavjud rekreatsiya obyektlari tarkibiga sharshara va shifobaxsh buloqlar, g'orlar, soy vodiylari, tabiat yodgorliklari, karst shakllari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, suv havzalari kabilarni kiritish mumkin (jadvalga qarang).



1-jadval. O'zbekistonning janubiy hududlarida joylashgan ayrim rekreatsiya obyektlar

Asosiy rekreatsiya yo'nalishlari	Rekreatsiya obyektlar
Davolash-sog'lomlashtirish maskanlari	Xo'jaikon tuz g'ori shifoxonasi, Jayronxona tibbiy reabilitatsiya va fizioterapiya muassasasi, Omonxona sanatoriyasi, "Xo'jaipok" sanatoriyasi, Termiz Marvaridi sanatoriyasi, "Sherobod shifo maskani" Konsoy sho'r ko'li, "Qashqadaryo sohili", "Miraki", "Oq suv shamoli", Xo'jaipak, "Mingchinor", "Qarshi", "Qaynar".
Shifobahsh buloqlar	Xo'ja mayxon ota, G'o'rimbuloq, Omonxona, G'alchalik buloq, Uchko'z buloq, Itbuloq, Qanishbuloq, Toshbuloq, O'mizbuloq, Oynabuloq, Sherakmozor buloq, Havzimaydon buloq, Xujaipok ota suvi, Qo'tir buloq, Sangardak, Jayronxona; Biyasig'mas buloq, Jiya buloq, Otkamar buloq, Oybuloq, Sho'rbuloq, Sariqamish buloq, Tolti-chashma, O'rinbo'loq, Tahirchoq buloq, Xaliya buloq, Qozon buloq, Alamli buloq, Sho'rbuloq va h.k.
G'orlar, soy vodiylari, tabiat yodgorliklari, karst shakllari, daralar	Xo'jaikon, Xojaipok, Qora kamar, Qorong'u yulduz Teshiktosh, Qora kamar, Xojaipok g'orlari, Qalaisheron, Qizilsuv, Suvtushar, Turku Tuyg'un; Kunkurmas, Novshur, Tanxoz, Oqsuvdara, Qasam va h.k.
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar	Bobotog' milliy tabiat bog'i, Yura yoshidagi dinozavrlar izlari, Sayrob chinorlari, Bo'r yoshidagi dinozavrlar izlari, Dendrariy, Laylak xona qoyalardagi rasmlar, Yura yoshidagi dinozavrlar izlari, Payg'ambar oroli, Surxon davlat qo'riqxonasi, Zarautsoy qoyatosh rasmlar va h.k.
Suv havzalari: suv omborlari	Oqtepa suv ombori, Degrez suv ombori, To'palang suv ombori, Uchqizil suv ombori, Amu-Surxon sohili, Janubiy Surxon, Hisorak, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Nug'ayli, Tallimarjon, Qalqama, Qorabog', Qamashi, Toshloqsoy suv ombori va h.k.

Jadval manbalar va dala tadqiqotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Viloyatda mineral buloqlar negizida bir qancha sanatoriyalar barpo etilgan bo'lib, sanatoriyalarga mahalliy davolanuvchilardan tashqari qo'shni respublikalardan ham tashrif buyuruvchilar mavjud. Boysun tumanidagi "Omonxona" bulog'i, "Xo'jamayxona" bulog'i, Oltinsoy tumanidagi "Xo'jaipokota" bulog'i, Sherobod tumanidagi "G'o'rimbuloq" bulog'i kabi buloqlar o'zining shifobaxshligi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, "Omonxona" bulog'i, Sherobod tumanidagi "G'o'rimbuloq" buloqlari ichki a'zolar hastaligi jumladan, oshqozon-ichak, jigar o't toshi, buyrak toshi kasalliklarga davo ekanligi isbotlangan. Surxondaryo viloyatidagi Omonxona, Xo'jaipok, G'o'rimbuloq, Qo'tirbuloq, Oqsuv, Xo'jamayxona, Shakarli ota, Sayrob, Seravodorod va Yodobrom buloq suvlarining shifobaxshlik xususiyatlari aniqlangan bo'lib ular ichki va tashqi a'zolari davolashda foydalaniladi.

2-jadval. Surxondaryo viloyati tumanlar kesimida turizm va rekreatsiyaning ayrim istiqbolli yo'nalishlari

№	Tuman nomi, istiqbolli turistik yo'nalishlari	Rekreatsion obyekt
1	Boysun tumani, Davolash-sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm	Xo'ja mayxon ota, G'alchalik buloq, Uchko'z buloq, Itbuloq, Qanishbuloq, Toshbuloq, O'mizbuloq, Oynabuloq buloqlari, Omonxona sanatoriysi; Qorong'u yulduz, Teshiktosh, Amir Temur g'orlari, Buzg'alaxona yoki "Temir darvoza" darasi; Boysun tog'larining pistazorlari; Sayrob chinorlari, bo'r yoshidagi dinozavrlar izlari
2	Denov tumani, Davolash-sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm	Sherakmozor buloq, Havzimaydon buloq, Dendrariy, Xonjiza darasi
3	Jarqo'rg'on tumani Ekoturizm, астрономик туризм	Oqtepa suv ombori, milliy oshxonalar
4	Muzrabot tumani Ekoturizm	Qora kamar g'ori
5	Oltinsoy tumani, Ziyorat, davolash-sog'lomlashtirish, turizmi, ekoturizm	Xujaipok ota suvi, Qo'tir buloq, Xojaipok g'ori, "Hayrondara" tog' darasi, Laylak xona qoyalardagi rasmlar, Degrez suv ombori



6	Sariosiyo tumani, Davolash-sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm, элчонмупузм	Sangardak sanatoriyasi, Sangardak sharsharasi, Sangardakbuloq, Shirinbuloq, Qorabuloq, Sirsoybuloq, Zavar sharsharasi, Kishtut sharsharasi, Xonjiza sharsharasi, To'polangdaryo, Sangardak, Obizarang, Sharg'un, Tamshush, Kishtut, Shotrut, Chosh, Xovatsoy daryolari sohilbo'yi hududlari, Ayg'irko'l, Yura yoshidagi dinovavrlar izlari, To'palang suv ombori, Bog'cha, Karsh Xo'jasiddiq, Zinchob, Mezo, Hurvatan, Chosh qishloqlari va Nilu qishloqlari.
7	Termiz tumani va Termiz shahri, Davolash-sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm, Ziyorat turizmi	Jayronxona, Semashko, "Termiz Marvaridi" sanatoriyalari, Abu Iso Muhammad imom at –Termiziy ziyoratgohi, Kattaqum cho'li, Payg'ambar oroli, Uchqizil suv ombori, Amu-Surxon sohili
8	Uzun tumani, Davolash-sog'lomlashtirish Ekoturizm	Biyasig'mas buloq, Jiyda buloq, Otkamar buloq, Oyubuloq, Sho'rbuloq, Sariqamish buloq, Tolli-chashma, Bobotog'ning pistazorlari
9	Sherobod tumani, Davolash-sog'lomlashtirish turizm, ekoturizm tog' turizmi	O'rinbo'loq, Tahirchoq buloq, Sassiqbuloq, Xalija buloq, Qozon buloq, Alamli buloq, Sho'rbuloq, Xo'jaikon туз ғори, Surxon davlat qo'riqxonasi, Zarautsoy qoyatosh rasmlar
10	Qumqo'rg'on tumani, Davolash-sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm	Toldibuloq, Tog' va tog' oldi adirlari, Janubiy Surxon suv ombori

Jadval manbalar va dala tadqiqotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati rekreatsiya va turizm resurslariga nihoyatda boy bo'lib, bunda xilma xil rekreatsiya obyektlari, jumladan ajoyib tabiiy landshaft turlari, sharshara va daralar, ziyoratgoh va tarixiy-turistik maskanlar, shifobaxsh buloqlar va ular negizida tashkil etilgan sanatoriy va dam olish maskanlari sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Bunday imkoniyatlar, nafaqat viloyatning tog' va tog'oldi hududlarida, qolaversa tekislik tumanlarida ham mavjud bo'lib, mazkur turistik imkoniyatlardan istiqbolda viloyat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida yanada samarali foydalanish maqsadga muvofiq .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Abdulxakimov Z.T. Mintaqada rekreatsiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2020.- 25 b.
3. Zokirov.A.Z. O'zbekistonning shifobaxsh resurslari va shifogoh maskanlari. T.: 1997. B-184.
4. Ibadullayev N.Y., Xamitov M.X., Abduxamidov S.A., Daminov M.I.. Mintakaviy turizm. o'quv qo'llanma. Samarkand-2018-y. 256.
5. Махаматиллаев З. Курортно-климатические ресурсы Узбекской ССР. Автореф. Дисс...канд. Геогр. Наук. – Т., 1972. – 25 с.
6. Mirzaev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarishning uslubiy jihatlar: o'zgarishlar va istiqbollar. Monografiya. "Al – Ferganus" nashriyoti. Farg'ona – 2021. 164 b.
7. Usmanova Z. Hududiy obyektlarning turistik-rekreatsion salohiyatini baholashning nazariy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2017. № 2 yil. 3-b.
8. Юсупов А.Х. Оценка климатических условий южных районов Узбекистана для отдыха и лечения. Дисс. ...канд. геогр. наук. – Т., 1995. – 139 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
